

BADIIY ASAR TAHLILIDA FUNKSIONAL YO‘NALISH ("QO‘RQMA" ASARI MISOLIDA)

O'rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'lishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asar tahlilidagi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan funksional yo‘nalish haqida. Ushbu yo‘nalishning mazmun mohiyati Javlon Jovliyevning "Qo‘rqma" asari orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Tahlil, funksional yo‘nalish, ijtimoiy

FUNCTIONAL DIRECTION IN THE ANALYSIS OF A WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK “DON’T BE AFRAID”

Annotation: This article is about the functional approach, which is one of the directions in the analysis of a work of art. The essence of this trend is revealed through Javlon Jovliyev’s work “Don’t be afraid”.

Key words: analysis, functional direction, social

Adabiy asar tahlili bilan shug'ullanuvchi mutaxasislarning ko'rsatishicha, badiiy tahlil genetik, funksional, tipologik, falsafiy, psixologik, filologik singari olti yo'nalishda amalga oshiriladi. Demak, bu yo'nalishlar ichidan funksional yo'nalishga to'xtalib o'tamiz. Funksional yo'nalish-ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan tahlilda asarning ijtimoiy ta'sir kuchiga alohida diqqat qaratiladi. Unda tekshirilayotgan asarning muayyan millat yoxud butun bashariyat ma'naviyatiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganish diqqat markaziga chiqariladi. Bunda tahlil qilinayotgan asarning milliy adabiy jarayonda tutgan o'rni, uning yaratilgan zamonidagi odamlar yoki tekshirilayotgan davr kishilari tafakkuriga o'tkazgan ta'sirini aniqlashga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu yo'nalishda badiiy asarda muayyan jamiyatdagi qanday ijtimoiy hodisa yoki qonuniyat qaysi obraz yoxud timsollar guruhi orqali ochilganini tadqiq etish muhim sanaladi. Sho'ro zamonidan e'tiboran to shu kunga qadar o'zbek adabiyotshunoslik ilmida G'arb estetikasida har doim ustuvor maqomga ega bo'lganligi sababli keng yoyilgan hisoblanadi. Tahlil yo'nalishi tahlil qiluvchining asosiy e'tibori o'rganilayotgan badiiy asarning ko'rkamligini ta'minlagan omillarning aynan qaysi jihatiga e'tibor qaratish, izlash va topishga, ularning estetik vazifasi va ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgani bilan diqqatni tortadi. Bunda badiiy so'zning jozibasini ochish, uning zamiridagi yashirin ma'nolarni kashf etish birlamchi o'rinda turadi. Aytilganidek, ko'rkam tahlil amaliyotida bu yo'nalishlarning sof

holda yolg'iz qo'llanishi o'ta kam uchraydi. Ko'pincha, tahlilchi muayyan asarni tahlil qilishda yuqorida sanalgan yo'nalishlarning bir nechasidan birvarakayiga foydalanadi. Shunda ko'rkam matnga xos bir qancha jihatni teranroq va to'laroq ochish imkoni tug'iladi. Funktsional tahlil yo'nalishidan tabiatan sof ijtimoiy xarakterda bo'lgan asarlarni tekshirishda foydalanish ko'proq samara keltiradi. Mana shunday asarlardan biri Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" asaridir. Roman o'tgan asrning yigirmanchi yillarida Germaniyada tahsil olgan va Sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan shafqatsizlarcha qatl etilgan millat yigit-qizlarining xotirasiga bag'ishlanadi. Roman voqealarini qisqacha so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi. Barchasi shu qadar tig'izki, u kitobxonni shoshirib qo'yadi. Majoz, obraz, ifoda, hech kimnikiga o'xshamagan lirizmni his qilasiz. Millat, sof muhabbat, ko'rinmas va oshkor fojialar, tarix, bugun va ertaning bir-biriga bog'langan zanjiri, rostlik da'vosidagi yolg'onlar, mulohazaga chorlaydi ba'zan yig'latadi ba'zan achchiq kulgi ostiga olinadi. "Qo'rqma" bugun va o'tmish qayg'usi. Asar Vatanga xizmat borasida ont ichib, Germaniyaga o'qishga ketgan talabalar qismati haqida. Sattor Jabbor, Abduvahob Murodiy, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukriy kabi Vatan ravnaqiga, o'sha davr insonlari uchun yangi ilmlar manbayini olib kelish yo'lida Germaniyaga borgan va turli xil qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar hayoti yoritilgan. Asardagi badiiy g'oya keng miqiyosli, unda millat va Vatan qayg'usi yotadi. Bu muammolar bugun va bir asr oldin yashagan yoshlar hayoti misolida tush oralig'ida kechadi. Muallif bu orqali mudroq yotgan ijtimoiy jamiyatni uyg'oqlikka, sergak bo'lishga chorlaydi. Asar kitobxonni uzoq o'ylashga, achchiq va ibratli bo'lgan xulolasalar chiqarishga undaydi. Asarning funktsional yo'nalishdagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

- asar Germaniyaga o'qishga ketgan talabalar va ularning fojilay hayot yakunida haqida eshitib qolgan roviy talaba nutqidan hikoya qilinadi, uning o'tmishga bo'lgan qiziqishi ziyolilarni hozirgi kun uchun bergan tuhfa larini unutmaslikka, bugunning ma'lum bir ma'noda bugun bo'lishiga hissa qo'shgan talabalarni eshitgandan so'ng na tunlar, na kunlarni anglay olmagan talaba bunga birinchi misol bo'la oladi. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi, bugungi jamiyat bu haqida qayg'ruyabdimi yoki ularning qonli o'tmishi haqida bilishga qiziqishlari qay darajada? Bu kabi ko'rinishlar asarni o'qish jarayonida mulohazaga chorlaydi. Bugungi jamiyani o'tmish bilan hamohang bo'lishga undaydi;

- asardagi Telefonchi, Qiztaka, Qoravoy kabi majoziy obrazlarning ahamiyati bugungi ijtimoiy hayot uchun beqiyos, chunki ular oliy o'quv yurtiga bilim olish, uni tarqatish uchun emas, balki qaysidir biri umrini ayollar bilan o'tkazish (ularning yoshi, kimligi umuman ahamiyatsiz), yana biri faqatgina telefon o'yinlariga oshno bo'lish, otanasining esa farzandim o'qiyapti deb madikorlik qilishgacha borishi, boshqasining esa bilim dargohiga faqat oqarish uchun kelganligini qayta-qayta aytib, suvdan chiqmaydigan, bu "ilm talablarining" hayoti jamiyatimizni uyg'oqlikka chorlaydi. Bu obrazlar orqali hozirgi ayrim talabalarimizning hayotini ochib bergan desak mubolag'a

qilmagan bo'lardik. Universitet yoki instituga kelish diplom egasi bo'lish degani emas, balkim kerakli ilmlarni olish va uni jamiyat rivoji uchun sarf etish, ziyolilar sonini orttirish, xalqni ma'rifatli qilish g'oyalari yotadi;

- asardagi talabning amakilarini ismi qayd etilmagan, balkim ularning kasbi bilan suvchi, traktorchi, hisobchi kabi aytilishi, bu qahramonlarimizning na jamiyat na o'z hayot yo'llarida o'zgarish qila olmaganlari uchun ham yozuvchi tomonidan noo'rin deb topilgandir. Ularning maqsadi hoysi havaslarga berilib, jamiyat ahvolini unutib qo'yish, o'z kayfu-safolari yo'lida hech narsadan qaytmaslik, ota-nasining o'qishga olib kirishlariga qaramasdan uni suiste'mol qilishi bugungi ijtimoiy hayotimizda ham uchrab turadi. Bu dunyo qaytar dunyo deb bejizha aytilmas ekan talabamizning amakilarini taqdiri ham aynan farzandlarida takrorlanishi yoki birovning bu dunyoda farzandlik bo'lish umidi bilan o'tib ketishi kitobxonni muloz qilishga chorlaydi;

- asardagi Germaniyaga tahsil olishga ketgan Sattor Jabbor, Abduvahob Murodiy, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukriy kabi obrazlarning hattoki och qolishgan chog'ida ham millat uchun o'qishga jon jahdi bilan kirishgan obrazlar o'rni beqiyosdir. Ular millat, Vatan yo'lida hech narsadan toymasliklari, hattoki yurtga qaytgach Sobiq Ittifoq tomonidan o'ldirib yuborishligini bilishsa ham Germaniyada qolmasdan millat uchun ozgina bo'lsa ham ilm nurlarini sochishdagi sa'y harakatlari hozirgi ijtimoiy hayotimizda ham mana shunday insonlarning salmoqli ekani bilan ajralib turadi. Ushbu talabalar bizga o'rnak bo'lishi, xalqiga, milatiga xiyonat qilayotgan, faqat o'zi uchun yashayotgani, o'qishni o'yin deb bilganlarga haqiqiy maktab bo'ladi. Bgun ham dunyoning rivojlangan mamlakatlarida o'n mingdan ortiq o'zbek talabalar tahsil olmoqda. Shu o'rinda ular bir narsani mana shu millat va vatan uchun o'qiyotganariga ishonaman. Bizda erkin va farovon jamiyatimizda barcha imkoniyatlar bor, faqatgina ozgina qo'rquvni yengsak bas.

Asar "Tugar chog'ida bir bepul maslahat aytaman-tug'maydigan xotin izlang, xo'p go'zal bo'lsin, sho'x, barno lek bepushtligi aniq-oshkora, sinovdan o'tgan bo'lsin ko'p bora, toki qo'rqqoq avlodning izlab yurmasin, qabringni mendak qaqqash, barchasiga aybdor sanab shu Vatanni, yerni va mozoringni. Bilib qo'y, ular qo'lida hech zamon gul bo'lmaydi, bo'lmas sen uchun qalquvchi ko'z yosh! Faqat qora yuzlarda kulgi va gardanida ulkan bir qarg'ish" jumalari ta'sir etmasdan qolmaydi. Zero, bu xalqqa shunday foydamiz tegsinki, ular kelajakda bizni aybdor sanamasinlar, ularga o'rnak bo'lish orqali jamiyat, har bir inson bu hayoida birlamchi ahamiyat kasbi etish, mana shu millat, xalq, Vatan uchun foydasi yetishib chiqadigan avlod bo'lishi. Alodlar ajdodardan uyalmasligi uchun isloh qiishni hozirdan va o'zimizdan boshlamog'imiz lozimdir. "Vatan bizga omonatdir, omonatdir, unga xiyonat-qiyomatdir, qiyomatdir, qiyomatdir!" so'zlari bilan yakunga yetishi kitobxonni to'lqinlantirib yuboradi va mana shu jamiyat uchun kerakligi shaxs ekanligini uni yodiga solib qo'yadi. Shunday ekan jamiyatga xiyonat, bu Vatanga xiyonatdir.

“Qo’rqma” asari badiiy asar tahlilida funksional yo’nalishiga yuqoridagi aytilgan xususiyatlari uchun ham misol bo’la oladi, yana unda millat va butun bir bashariyatga ta’sir eta oladi. bugun va o’tmish voqealigini taqqoslashga, teran fikarlashga chorlydi. Ma’lum bir jamiyatning ma’naviyati va ijtimoiy ongiga ta’sir eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo’ldoshev Q, Yo’ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari.-T.: Kamalak, 2016
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari.-T.: 2014
3. Jovliyev J. Qo’rqma.-T.: Nihol, 2020
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Darslik, 2-nashri. T.: 1986